



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 3-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 3 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrishka82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O‘zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – Yuridik fanlar

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Yusupov Shakir

AMIR TEMUR DAVRIDA XORAZM: XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA SIYOSIY VA TARIXIY-
MADANIY JARAYONLARNING YONDASHUV VA TALQINLARI5-10

Ubaydullayev Oybek

SHURABASHAT POTTERY AS ARCHAIC FORMS OF
ANCIENT POTTERY PRODUCTION 11-15

Matkarimova Nazokat, Matnazarova Dilorom

XORAZM XALQ SAN'ATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING
MADANIY-KONSEPTUAL TALQINI 16-20

PSIXOLOGIYA FANLARI

Jurakulova Dildora

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQNI BARTARAF ETISH JARAYONIDA TARBIYAVIY
YONDASHUVINING INNOVATSION IMKONIYATLARI 21-24

Konratbaeva Ayjamal

TIL O'RGANISH JARAYONIDA GAPIRISH KO'NIKMASI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK
OMILLAR O'RNI 25-28

PSIXOLOGIYA FANLARI – PSYCHOLOGICAL SCIENCES*Article / Original Paper***O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQNI BARTARAF ETISH JARAYONIDA
TARBIYAVIY YONDASHUVINING INNOVATSION IMKONIYATLARI****Jurakulova Dildora Ziyodullayevna**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada psixologik zo'rvonlikning o'smir shaxsiga ta'siri, unda destruktiv xulqning shakllanish mexanizmlari hamda bu jarayonni bartaraf etishda shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya yondashuvining innovatsion imkoniyatlari ilmiy tahlil qilingan. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning o'smirning ruhiy himoyasini mustahkamlashga, uning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga va destruktiv xulqlarni kamaytirishga ko'rsatadigan ta'siri asoslab berilgan. Maqolada pedagogik jarayonni transformatsiyalashga oid zamonaviy mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: psixologik zo'rvonlik, oila, o'smirlik, destruktiv xulq, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion pedagogika, psixologik barqarorlik.

**INNOVATIVE OPPORTUNITIES OF AN EDUCATIONAL APPROACH IN THE
PROCESS OF OVERCOMING DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS****Djurakulova Dildora Ziyadullaevna**

Associate Professor of the Department of Psychology, Ph.D.

Annotation: This article scientifically analyzes the impact of psychological violence in the family on adolescent personality, the mechanisms of forming destructive behavior in them, and the innovative possibilities of a personality-valuable educational approach in eliminating this process. The influence of personality-oriented education on strengthening the psychological defense of adolescents, their socio-emotional development, and reducing destructive behavior is substantiated. The article proposes modern mechanisms for transforming the pedagogical process.

Keywords: psychological violence, family, adolescence, destructive behavior, personality-oriented education, innovative pedagogy, psychological resilience.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i3v2y2026/n04>

Kirish. Oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini sifatida bolalarning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa o'smirlik davri shaxsning eng ta'sirchan bosqichlaridan biri bo'lgani sababli oilaviy muhitning xarakteri uning xulq-atvori va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ko'plab oilalarda uchrayotgan psixologik zo'rvonlik, ya'ni hissiy tahqirlash, mensimaslik, doimiy tanqid, sovuqqonlik yoki nazoratning kuchaytirilishi o'smir ruhiyatida jiddiy salbiy izlar qoldirmoqda. Bunday holat o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchiga putur yetkazib, unda tajovuzkorlik, ijtimoiy me'yorlardan chekinish, motivatsiyaning pasayishi kabi destruktiv xulq shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash, ularni salbiy oilaviy ta'sirlardan himoya qilish, emotsional qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli o'smirning individual ehtiyojlari va ruhiy holatini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni qayta tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oiladagi psixologik zo'ravonlikning o'smir shaxsiga ta'sirini chuqur o'rganish va uni yumshatishga qaratilgan innovatsion tarbiya mexanizmlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Oilada psixologik zo'ravonlikning o'smirlarni ruhiy va xulqiy rivojlanishiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Avvalo bu holat o'smirning emotsional barqarorligini izdan chiqarib, unda xavotir, tushkunlik, o'zini qadrsiz his qilish kabi hissiy buzilishlarni kuchaytiradi. O'zini himoyasiz deb bilgan o'smir atrofdagilarga nisbatan tajovuzkorlik ko'rsatishi, o'qishdan sovushi, ijtimoiy faoliyatdan chekinishi ehtimoli ortadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlar ko'proq impulsiv qarorlar qabul qiladi va konstruktiv muomala ko'nikmalari sust rivojlanadi.

Mazkur jarayonni bartaraf etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu model o'quvchining shaxsiy tajribasi, ehtiyojlari, hissiy holati va individual rivojlanish traektoriyasini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni talab etadi. Pedagog o'smirni nafaqat bilim oluvchi subyekt, balki emotsional ehtiyojlari bor shaxs sifatida qabul qilishi lozim. Maktabda xavfsiz psixologik muhit yaratish, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasida ishonchli muloqot o'rnatish, sinfda ijtimoiy-emotsional o'qitish komponentlarini joriy etish o'smirning ruhiy barqarorligini tiklashda katta yordam beradi.

L. S. Vygotskiy oila muhitini bolaning psixik rivojlanishidagi asosiy ijtimoiy makon sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, o'smirning emotsional va xulqiy rivoji oiladagi munosabatlarning sifati bilan uzviy bog'liq. Psixologik bosim yoki hissiy sovuqqonlik o'smirning ichki motivatsiyasini susaytirib, konstruktiv xulq o'rniga destruktiv reaksiyalar paydo bo'lishiga olib keladi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bola xulqi ko'pincha kattalar xulqining aksidir. Oilada qo'pollik, zo'ravonlik yoki tahqirlash avj olgan bo'lsa, o'smir ushbu xatti-harakatlarni me'yoriy deb qabul qiladi va ularni muloqot jarayonida takrorlaydi. Bu esa tajovuzkorlik, qarshilik va impulsivlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bola o'zini psixologik jihatdan himoyalangan his qilmasa, unda xavotir va beqaror xulq shakllanadi. Oiladagi psixologik zo'ravonlik o'smirning asosiy emotsional bog'lanish kanalini izdan chiqaradi. Natijada o'smir ijtimoiy moslashuvda qiynaladi, o'zini qadrsiz his qiladi va ko'pincha destruktiv xulq orqali o'zini himoya qilishga urinadi.

E. Erikson ta'kidlaganidek, o'smirlik davrining asosiy vazifalaridan biri "o'zini anglash" mezonini shakllantirishdir. Agar bu davrda oila tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, o'smir identitet inqiroziga duch keladi. Psixologik zo'ravonlik ushbu inqirozni yanada chuqurlashtirib, shaxsning beqaror xulqiy modelga o'tishiga sabab bo'ladi.

K. Rodjersning gumanistik pedagogika qarashlarida ta'kidlanishicha, bola shaxs sifatida qabul qilingan, tinglangan va hurmat qilingan muhitda sog'lom psixologik rivojlanish sodir bo'ladi. Aksincha, doimiy tanqid va mensimaslik bo'lgan oilalarda o'smirning "men-konsepsiyasi" izdan chiqadi va u o'zini tasdiqlash uchun konstruktiv yo'l o'rniga konfliktsiz yoki agressiv yo'lni tanlashi mumkin.

D.Baumrindning tarbiya uslublari tasnifida avtoritar oilalardagi haddan tashqari nazorat, qo'rqitish va bosim o'smirlarda itoatsizlik, tajovuzkorlik va passiv qarshilik shakllanishiga olib kelishi qayd etilgan. Aksincha demokratik va qo'llab-quvvatlovchi tarbiya uslubi o'smirning ijtimoiy-emotsional barqarorligini mustahkamlaydi.

SEL (Social-Emotional Learning) ilmiy yo'nalishi bo'yicha tadqiqotchilar (Durlak, Weissberg va boshqalar) ta'kidlaydiki, emotsional-intellektual kompetensiyalarni o'qitish o'smirlarda stressni kamaytiradi, o'zini idora qilishni yaxshilaydi va oilaviy ziddiyatlar ta'sirini sezilarli darajada yumshatadi. Bu model ayniqsa psixologik zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda samarali.

A.Maslouning ehtiyojlar piramidasiga ko'ra, o'smirning ruhiy barqarorligi uchun xavfsizlik, muhabbat va qadrlanish ehtiyojlarining qondirilishi zarur. Psixologik zo'ravonlik aynan shu asosiy ehtiyojlarni buzadi. Natijada o'smir yuqori darajadagi rivojlanish bosqichlariga o'tolmaydi va destruktiv xulq "qo'shimcha himoya mexanizmi" sifatida shakllanadi.

Innovatsion tarbiya mexanizmlarining qo'llanilishi jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Masalan raqamli psixologik monitoring tizimlari orqali o'smirning xulqiy o'zgarishlari erta aniqlanadi, psixologik treninglar yordamida emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalari shakllanadi, ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlari esa o'zaro muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Oilaviy hamkorlikni mustahkamlash ham muhim masaladir, chunki oila va maktabning o'zaro uyg'un faoliyati o'smirning psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlaydi. Ota-onalar uchun psixopedagogik seminarlar tashkil etish, ular bilan muntazam muloqot olib borish, oila ichidagi ziddiyatlarni yumshatish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish o'smirlarning destruktiv xulqlarining oldini oladi.

Oila ichidagi psixologik zo'ravonlikning o'smirlar ruhiyati va xulq-atvoriga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlar ushbu muammo keng tarqalganligini ko'rsatadi. Turli davlatlarda olib borilgan statistik kuzatuvlarga ko'ra, oilada hissiy bosim, tahqirlash, mensimaslik kabi psixologik zo'ravonlik shakllariga duch kelgan o'smirlarning sezilarli qismi stress, xavotir va depressiv holatlarga moyilligi ortgan guruhga kiradi. Odatda psixologik zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning katta qismi o'z-o'zini baholash darajasining pasayishini namoyon etadi, bu esa xulqiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik tajribasiga ega o'quvchilar o'rtasida maktab intizomi bilan bog'liq muammolar, o'qishni tark etish xavfi va pedagoglar bilan ziddiyatga kirishish ehtimoli yuqoriroq. Shuningdek, ularning ijtimoiy faolligi pasayishi, do'stlar bilan barqaror munosabat o'rnatishda qiynalish hollari ko'proq uchraydi. Psixologik xizmatlar tomonidan o'tkaziladigan diagnostik testlar natijalariga ko'ra, oilaviy stress omillariga duch kelgan o'smirlar orasida agressiv xulq namoyon bo'lishi odatda erta belgi sifatida qayd etiladi. Baholash varaqalarining solishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlar qanchalik ko'proq hissiy e'tiborsizlik yoki psixologik bosimni his qilsa, ular orasida impulsiv qarorlar, xavfli xatti-harakatlar va ijtimoiy me'yorlarni buzish holatlari shunchalik ko'p uchraydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ijtimoiy-emotsional o'qitish dasturlarini qo'llagan maktablarda o'tkazilgan monitoring natijalari esa bunday yondashuv psixologik zo'ravonlik ta'sirini sezilarli darajada yumshatishini ko'rsatadi. Bu turdagi maktablarda o'smirlar orasida agressiv xulq kamayishi, samarali muloqot ko'nikmalarining ortishi va o'zini boshqarish

darajasining yaxshilanishi kuzatiladi. Emotsional qo'llab-quvvatlash tizimi kuchli bo'lgan ta'lim muhitlarida o'smirlarning motivatsiya va o'ziga bo'lgan ishonch ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega bo'ladi. Statistik ma'lumotlar oila va maktab muhitining uyg'unligi o'smirning destruktiv xatti-harakatlar yuzaga kelishida hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Psixologik zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini yumshatishda pedagogik profilaktika, psixologik yordam va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi innovatsion ta'lim texnologiyalari yuqori samaradorlikka ega ekani kuzatuvlar orqali asoslanadi.

Pedagogik jarayonni transformatsiyalashning yana bir yo'nalishi korreksion tarbiya dasturlarini ta'lim muassasalariga integratsiya qilishdir. Ushbu dasturlar orqali o'smirlar stressni boshqarish, konfliktlarni konstruktiv hal etish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish kabi zaruriy psixologik kompetensiyalarni egallaydi. Bu esa destruktiv xulqning ildizini bartaraf etadigan ijtimoiy-emotsional poydevorni mustahkamlaydi.

Xulosa. Oila muhitidagi psixologik zo'ravonlik o'smir shaxsiy rivojlanishiga eng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Bu holat o'smirning emotsional muvozanatini izdan chiqaradi, unda destruktiv xulq shakllanishiga sabab bo'ladi va ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Mazkur muammoning yechimi sifatida shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya yondashuvining joriy etilishi yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik model o'smirning ruhiy farovonligini tiklaydi, uning emotsional ehtiyojlarini qondiradi, o'zini qadrlash darajasini oshiradi va destruktiv xulqning oldini olishga xizmat qiladi.

Maktab va oila hamkorligiga asoslangan innovatsion tarbiya tizimining shakllantirilishi, zamonaviy psixologik monitoring va korreksion dasturlarning ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, oilada psixologik zo'ravonlikning oqibatlarini kamaytirish hamda o'smirlarni ijtimoiy barqaror shaxs sifatida tarbiyalashda shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya modeli strategik ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik yo'nalishdir.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Mullender A. (Ed.) *Children's Perspectives on Domestic Violence*. London: SAGE Publications, 2002.
2. Voisin D. R. "The Effects of Family Violence on Adolescents: An Ecological Perspective." *Journal of Interpersonal Violence*, 2007.
3. Evans S. E., Davies C., & DiLillo, D. "Exposure to Domestic Violence: A Meta-Analysis of Child and Adolescent Outcomes." *Aggression and Violent Behavior*, 2008.
4. Holt S., Buckley H., & Whelan, S. "The Impact of Exposure to Domestic Violence on Children and Young People: A Review of the Literature." *Child Abuse & Neglect*, 2008.
5. Cicchetti D., & Rogosch F. A. "Family Violence, Child Maltreatment, and Adolescent Psychopathology." *Journal of Clinical Child & Adolescent Psychology*, 2001.
6. Kamolov, B. (2026). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARIDA EKOTURISTIKMADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIKTEXNOLOGIYALARI. In *ILMIYARXIV*. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/30>.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 3 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com